

“TASDIQLAYMAN”



O‘zbekiston Respublikasi
Energetika vaziri

J. Mirzamahmudov

2024-yil 24 -iyul

**O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligidagi Inson resurslarini rivojlantirish
va boshqarish bo‘limida mavjud vakant lavozimga ishga qabul qilish bo‘yicha
tanlov komissiyasining
33 -son bayoni**

2024-yil “24” 07

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: J. Mirzamahmudov – Energetika vaziri, Tanlov komissiyasi raisi

Qatnashganlar: Vazir o‘rinbosarlari, vazirning rejim va komplayens bo‘yicha maslahatchisi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi vakili, Tanlov komissiyasi a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limida mavjud vakant lavozim uchun e‘lon qilingan tanlovning suhbat bosqichini o‘tkazish to‘g‘risida

(Mirzamahmudov, Mamatkarimov, Shukurov, Fayziyev, Mirzamahmudov)

O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) bilan kelishgan holda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi markaziy apparati va tashkiliy tuzilmasidagi tashkilotlarda mavjud vakant lavozimlariga ishga qabul qilish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi” (keyingi o‘rinlarda - Tartib) talablariga muvofiq vazirlik markaziy apparatining **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi** vakant lavozimiga ishga qabul qilish uchun Agentlikning <https://vacancy.argos.uz/> platformasi orqali e‘lon qilingan tanlovda 117 ta murojaat kelib tushgan.

Tanlovning 1-bosqichi bo‘yicha nomzodlarning o‘rnatilgan malaka talablariga mosligi tekshirildi, shundan so‘ng, muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar tomonidan tanlovning 2-bosqichida Agentlikda test sinovlari topshirildi.

Tanlovning test sinovlari bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan 5 (besh) nafar nomzod (I.Akbarov, M.Javqanov, M.Klichev, I.Karimov, K.Muslimov) tanlovning suhbat bosqichiga taklif qilindi. Ulardan 2 (ikki) nafari (I.Karimov, K.Muslimov) zoom konferensiya orqali qatnashdi, qolgan nomzodlar suhbatda sababsiz ishtirok etmadi.

Tanlovning suhbat bosqichi Energetika vazirligi binosida ochiq muloqot shaklida bo'lib o'tdi.

Suhbat bosqichida Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodlarga tanlagan vakant lavozimi faoliyati bilan bog'liq savollar berildi. Shundan so'ng nomzodlarning javoblari o'rnatilgan tartibda muhokama qilindi.


Komissiya a'zolarining tavsiyalarini ko'rib chiqib va takliflarini inobatga olib, Tanlov komissiyasi **qaror qiladi:**

1. Vazirlik markaziy apparatining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi lavozimiga Kamoliddin Giyas o'g'li Muslimov nomzodi ma'qullansin.


2. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Z.Fayziyev) tanlangan nomzod bilan o'rnatilgan tartibda mehnat munosabatlariga oid hujjatlarni imzolash va lavozimga tayinlash bo'yicha ishlarni amalga oshirsin.


3. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish vazir maslahatchisi D.Shukurov zimmasiga yuklansin.


 B. Mamatkarimov


 U. Mamadaminov


 S. Qurbonov

 D. Shukurov

 A. Raupov

 Z. Fayziyev

 F. Sharipov

 R. Xakimov